



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

MOLIYA VA IQTISOD

XALQARO AMALIYOTDA PUL MABLAG‘LARI AYLANISHINI BOSHQARISH VA ULARNING ZAMONAVIY MODELLARI

Ulug‘bek NURMANOV¹

¹ISFT instituti professori, iqtisodiyot fanlari doktori

KALIT SO‘ZLAR

Joriy aktivlar, pul mablag‘lari, pul mablag‘lari harakati, pul tushumlari, pul oqimi, pul oqimlarini prognozlash, investitsiyalangan pul mablag‘lari, pul mablag‘larini optimallashtirish, pul mablag‘larini optimallashtirish modellari, sotishdan pul tushumi, pul oqimining shakllanishi, kritik o‘zgaruvchan, pul aktivlari qoldig‘i.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Оборотные активы, денежные средства, движение денежных средств, денежные потоки, прогнозирование денежных потоков, инвестированные денежные средства, оптимизация денежных средств, модели оптимизации денежных средств, выручка от продаж, формирование денежных потоков, критическая переменная, остаток денежных активов.

KEY WORDS

Current assets, cash, cash flow movement, cash receipts, cash flow, cash flow forecasting, invested cash, cash optimization, cash optimization models, cash flow from sales, cash flow formation, critically variable, cash asset balance.

ANNOTATSIYA

Joriy aktivlar qisqa muddatli ishlatish uchun mo‘ljallangan va bir ishlab chiqarish sikl davomida pulga aylantiriladigan mablag‘lar sanaladi. Shu sababli ularni samarali tashkil etish va boshqarish uchun qanday mezonlarga ko‘ra tupkumlanishi, tuzilmasi hamda tarkibiy qismlari o‘rtasidagi nisbat qanday bo‘lishi kabi jihatlarini o‘rganish muhimdir. Xo‘jalik subyektlarning moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda ham joriy aktivlardan samarali foydalanish muhim vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Pul mablag‘lar harakatiga baho berish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo‘yicha ichki xo‘jalik imkoniyatlarini aniqlash hamda ularni xo‘jalik jarayoniga jalb qilish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqish dolzabp sanaladi.

АННОТАЦИЯ

Оборотные активы – это средства, предназначенные для краткосрочного использования и конвертируемые в денежные средства в течение одного производственного цикла. Поэтому важно изучать как они сливаются, какова их структура, а также каково соотношение между их компонентами для их более эффективной организации и управления. Эффективное использование оборотных активов также является одной из важных задач в обеспечении финансовой устойчивости хозяйствующих субъектов. Актуальна оценка движения денежных средств и разработка программ по выявлению внутрихозяйственных возможностей повышения эффективности производства и вовлечению их в хозяйственный процесс.

ABSTRACT

Current assets are resources intended for short-term use and are converted into cash within a single production cycle. Therefore, it is crucial to study how they are formed, their structure, and the ratio between their components to ensure more effective organization and management. Efficient use of current assets is also a key task in maintaining the financial stability of business entities. Evaluating cash flow and developing programs to identify internal opportunities for improving production efficiency and integrating them into the economic process remain highly relevant.



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

Kirish. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida xo‘jalik subyektlarining joriy aktivlarini tahlil qilish natijasida, ularning solishtirma hissasi ishlab chiqarish sohasida doimiy ravishda ko‘payib, muomala sohasida (tayyor mahsulot, pul mablag‘lari) esa kamayib borganligini ko‘rish mumkin. Joriy aktivlarni o‘rganishda pul mablag‘lari alohida o‘rin egallaydi. Bunday mablag‘lar kassa, hisob-kitob, valyuta hisobraqamidagi pullar tushuniladi. Mazkyp joriy aktivlar munosabatlarini to‘lov majburiyatlarining bajarilishida birlamchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, hisob-kitob va valyuta hisobraqamidagi mablag‘lar mahsulot yetkazib beruvchilar, pudratchilar, ishchi-xizmatchilar, byudjet, bank, sug‘urta va boshqalar bilan bo‘ladigan aloqa manbayidir. Shy tufayli ushbu masala alohida o‘rganilishi lozim.

Pul mablag‘lari hisob-kitobi – kreditorlarga xo‘jalik subyektlarining kreditga bo‘lgan tig‘iz talabini baholash uchun va operatsion sikl davomida qisqa muddatli ssudalarni qoplash uchun yetarli darajadagi pul mablag‘larini ishlab topishga qodirligini aniqlash imkoniyatini beradi, shuningdek, uzoq muddatli yoki qisqa muddatli kreditlarga ehtiyoji mavjudligini aniqlashda hamda qarzdorlarning mavsumiy tijopat sikli davomidagi moliyaviy ehtiyojlarini aniqlashda majburiyatlar qoplanishining imkoniyatlarini ko‘rsatib beradi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ishlab chiqarish faoliyatini yuritishda asosiy huquqiy hujjat O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonunining 12-moddasida aktivlar va majburiyatlarni baholash tartibi keltirilgan [1]. Shuningdek, ushbu qonun bilan

birga bir qator BHMClar ham joriy aktivlarni hisobga olishning meyoriy-huquqiy asoslari hisoblanadi. Xususan, 9-sonli “Pul oqimi to‘g‘risidagi hisobot” nomli BHMClar [2], 15-sonli “Buxgalteriya balansi” [3] nomli BHMClar orqali joriy aktivlar hisobi tartibga solib boriladi.

Xalqaro amaliyotda esa naqd pul muomalasi 32-son IAS va 39-sonli “Moliyaviy-qimmatli qog‘ozlar” [4] va 7-con IFRS “Pul oqimi hisobotlari” bilan tartibga scolinadi [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Pul mablag‘lari to‘g‘risida xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning fikr va mulohazalariga to‘xtalib o‘tamiz.

Xorijlik iqtisodchi olimlar Spiceland, David J., James F. Sepe va Lawrence A. Tomassinlarning fikricha “Pul mablag‘lari o‘z tarkibiga banknotlar va tangalar, hisobraqamlardagi qoldiqlar, shuningdek, ushbu hisobraqamlarga kirim qilinishi bo‘yicha xaridoplar tomonidan berilgan cheklar kiritiladi. Pul mablag‘larining ushbu ko‘rinishlari korxonaning qarzini qoplashga yoki joriy faoliyatda foydalanishda hech qanday huquqiy va shartnomaviy cheklovlersiz oson qo‘llanilishi mumkin” [6].

V.Kovalev va V.Patrovlarning ta’kidlashlaricha, “Moliyaviy boshqaruv san’ati aynan shundan iboratki, hisobraqamlarda minimal mablag‘lar summasini qoldirib, qolganlarini joriy operatsion faoliyatda zarur bo‘ladigan tez pealizatsiya qilinadigan aktivlarda saqlashdir” [7].

I.Ismanov, N.Toshmamatov, S.Buzrukxonovlarning fikricha “Korxonaning pul mablag‘lari ularning hisob-kitobidagi,

maxsus hisobraqamlaridagi va kassadagi naqd pullardan tashkil topadi» [8] – deb ta’kidlagan.

Pul oqimlari to’g’risidagi ma’lumotlar xo’jalik yurituvchi sybyektning ishlab chiqarish qobiliyatini baholash va ularga bo’lgan ehtiyojini aniqlash uchun zaryrdir. IAS 7-son “Pul mablag’lari harakati to’g’risida hisobot» xalqaro moliyaviy hisobot standartining maqsadi operatsion (joriy), investitsion va moliyaviy faoliyatdan kelib chiqqan pul mablag’lari va ularning ekvivalentlarining tarixiy o’zgarishlari to’g’risida ma’lumot berishdan iborat ekanligi bejiz emas.

Natijalar. Xo’jalik yurituvchi subyektlarda pul oqimini boshqarish moliyaviy menejerning eng muhim

faoliyatidan biri bo’lib, ular quyidagilardan iborat: moliyaviy bosqichni hisoblash;


- pul oqimi tahlili;
- pul oqimlarini prognozlash;
- mablag’larning optimal darajasini aniqlash;
- pul mablag’larini boshqarish usullarini ishlab chiqish.

Ushbu faoliyat turlarining har birini quyida kengroq yoritib o’tamiz:

Moliyaviy bosqich yoki pul muomalasi bosqichi – bu mablag’lar muomaladan chetlashtiriladigan vaqt hisoblanib, ishlab chiqarish faoliyati jarayonida mablag’lar aylanishining asosiy bosqichlari quyidagi rasmda ko’rsatilgan.

График 1.

Динамика кредитования малого бизнеса и уровня просроченной задолженности (2018-2023)



1-rasm. Joriy aktivlarning aylanish bosqichlari



Moliyaviy bosqich moliyaviy resurslarning zaxiralar va debitorlik qarzlari harakatsiz bo‘lgan umumiy vaqtni tavsiflaydi. Xo‘jalik yurituvchi subyekt yetkazib beruvchining schyot-fakturalarini vaqt oralig‘i bilan to‘laganligi sababli pul mablag‘larini muomaladan chiqarib yuborish vaqti, ya‘ni moliyaviy bosqich kreditorlik qarzlari aylanishining o‘rtacha vaqtiga nisbatan qisqaroq sodir bo‘ladi. Moliyaviy davrlarning dinamikasi qisqarishi ijobiy jarayon sifatida

qaraladi. Agar muomala davrining qisqarishini ishlab chiqarish jarayoni va debitorlik qarzlari aylanmasini tezlashtirish orqali amalga oshirish mumkin bo‘lsa, moliyaviy bosqichni shu omillar ta‘sirida hamda kreditorlik qarzlari aylanmasining kritik bo‘lmagan sekinlashuvi hisobiga ham qisqartirish mumkin. Moliyaviy bosqichning aylanish kunlardagi davomiyligi quyidagi tenglama bilan aniqlanadi:

$$MB = MBD - KQMD = IChZMD + DQMD - KQMD (1)$$

Bunda: MBD – muomala bosqichi davomiyligi; KQMD – kreditorlik qarzlarni muomala davri; IChZMD – ishlab chiqarish zaxiralarini muomala davri; DQMD – debitorlik qarzlarning muomala davri.

$$ChZMD = \frac{IChZO'}{MICHX} * D (2)$$

$$DQMD = \frac{DQO}{KST} * D (3)$$

$$KQMD = \frac{KQO'}{MICHX} * D (4)$$

Bunda:

D – davriylik (D = 365 kun);

IChZO‘ – ishlab chiqarish zaxiralarining o‘rtachasi;

DQO‘ – debitorlik qarzlarning o‘rtachasi;

KQO‘ – kreditorlik qarzlarning o‘rtachasi;

MICHX – mahsulot ishlab chiqarish uchun xarajatlar;

KST – kredit bo‘yicha sotishdan tushum.

Hisoblashning axborot ta‘minoti – moliyaviy hisobotlar hisoblanadi.

Mazkur hisoblash ikki yo‘l bilan amalga oshirilishi mumkin:

- debitorlik va kreditorlik qarzlari to‘g‘risidagi barcha ma‘lumotlar uchun;
- ishlab chiqarish jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan debitorlik va kreditorlik qarzlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarga ko‘ra.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda pul oqimlarini prognoz qilish ma‘lum bir davr

uchun kichik davrlar kontekstida amalga oshiriladi: *yil - chorak, yil - oy, chorak - oy* va boshqalar.

Prognozlash tartibining bosqichlari quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- pul tushumlarini kichik davrlar bo‘yicha prognozlash;
- kichik davrlar bo‘yicha pul mablag‘larining chiqishini prognozlash;
- davrlar bo‘yicha sof pul oqimi (ortiqcha/taqchilligi)ni hisoblash;
- kichik davrlar sharoitida qisqa muddatli moliyalashtirishga umumiy ehtiyojni aniqlash.

Birinchi bosqichda mumkin bo‘lgan pul tushumlari miqdorini hisoblash amalga oshiriladi. Amalda esa ko‘pchilik korxonalar mijozlarning hisob-kitoblarni to‘lash uchun ketadigan o‘rtacha vaqtini hisobga oladi. Shunga asoslangan holda mahsulotlarni



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

sotishdan tushgan tushumning qaysidir qismi xuddi shu yarim davrda, qaysidir qismi esa keyingi davrda tushishini hisoblash mumkin. Bundan tashqari balans usulidan foydalangan holda kassa tushumlari va debitorlik qarzlarning o'zgarishi zanjirli tarzda hisoblanadi. Ya'ni asosiy tenglama ko'rinishi quyidagicha:

$$DQ_b + ST = DQ + PT$$

Bunda: DQ_b – davr boshidagi tovar va xizmatlar uchun debitorlik qarzlari;

DQ – tovar va xizmatlar uchun debitorlik qarzlari;

ST – davr uchun mahsulot sotishdan tushum;

PT – davrda pul tushumlari.

Ikkinchi bosqich naqd pul oqimini hisoblash aniqlanadi. Uning asosiy maqsadi kreditorlik qarzlarni to'lashdir. To'lovni kechiktirish jarayoni “muddati uzaytirilgan” kreditorlik qarzlari deb ataladi. Bunda kechiktirilgan kreditorlik qarzlari qisqa muddatli moliyalashtirishning qo'shimcha manbai bo'lib xizmat qiladi. Bunday tizimda kechiktirilgan kreditorlik qarzlari ancha qimmat mablag' manbayiga aylanadi, chunki mol yetkazib beruvchining chegirmalarining bir qismi yo'qoladi.

Uchinchi bosqich yuqorida keltirilgan ikkita bosqichning mantiqiy davomi bo'lib, unda bashorat qilingan pul tushumlari va to'lovlarini taqqoslash orqali sof pul oqimi hisoblab chiqiladi.

To'rtinchi bosqich – qisqa muddatli moliyalashtirishga bo'lgan umumiy ehtiyoj hisoblab chiqiladi. Bunda prognoz qilingan pul oqimini ta'minlash uchun zarur bo'lgan har bir kichik davr uchun qisqa muddatli bank kreditining hajmi aniqlanadi.

Har xil turdagi joriy aktivlar turlicha likvidlikka ega bo'lib, bu esa ushbu aktivni pulga aylantirish uchun zarur bo'lgan vaqt davri va konvertasiyani ta'minlash xarajatlari sifatida tushuniladi. Bunda faqat naqd pul mablag'lari mutlaq likvidlikka ega.

Investitsiyalangan pul mablag'lari investitsiyalangan tovar-moddiy zaxiralari nazariyasi nuqtayi nazaridan alohida holatlaridan biridir. Shu sababli ularga umumiy talablar qo'llaniladi, ya'ni:

- joriy hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun asosiy mablag'lar ta'minoti talab qilinadi;
- kutilmagan xarajatlarni qoplash uchun ba'zi mablag'lar kerak;
- faoliyatning mumkin bo'lgan yoki bashorat qilinadigan kengayishini ta'minlash uchun ma'lum miqdorda bepul naqd pulga ega bo'lish tavsiya etiladi.

Ya'ni, zaxiralarni boshqarish nazariyasida ishlab chiqilgan va pul miqdorini optimallashtirishga imkon beruvchi modellar pul mablag'lariga nisbatan qo'llanilishi mumkin.

Pul mablag'lar miqdorini optimallashtirish uchun turli xil modellari mavjud:

- *Baumol modeli.*
- *Miller-Orr modeli.*
- *Stoun modeli.*
- *Monte-Karlo modeli.*

Baumol modeli bunda xo'jalik yurituvchi subyekt maksimal va maqsadga muvofiq mablag'lar bilan ishlab boshlaydi hamda ularni doimiy ravishda ma'lum vaqt davomida sarflaydi.

Xo'jalik yurituvchi subyekt tovar va xizmatlarni sotishdan tushgan barcha mablag'larni qisqa muddatli qimmatli



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

qog‘ozlarga sarmoya qiladi. Pul mablag‘lari zaxirasi tugashi bilan nolga tenglashadi yoki ma‘lum bir belgilangan xavfsizlik darajasiga yetadi. Xo‘jalik yurituvchi subyekt qimmatli qog‘ozlarning bir qismini sotadi va shu orqali pul zaxirasini dastlabki qiymatiga qadar to‘ldiradi.

Miller-Orr modeli oddiy va xarajatlari barqaror hamda prognoz qilinadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun juda maqbuldir. Aslida esa bunday holat kamdan-kam hollarda sodir bo‘ladi.

Miller va Orr tomonidan ishlab chiqilgan model oddiylik va haqiqat o‘rtasidagi kelishuvdir. Bu orqali quyidagi savolga javob berishga yordam beradi, ya‘ni agar pulning kunlik chiqishi yoki kirib kelishini bashorat qilishning iloji bo‘lmasa, xo‘jalik yurituvchi subyekt pul ta‘minotini qanday boshqarishi kerak?

Miller va Orr modelni yaratish uchun Bernulli jarayonidan foydalanadilar, bunda davrdan davrga pulning kelib tushishi va sarflanishi mustaqil tasodifiy hodisalar bo‘lgan stoxastik jarayondir.

Mazkur modelning mantig‘i quyidagicha: hisob balansi yuqori chegaraga yetgunga qadar tasodifiy o‘zgaradi. Bu holat sodir bo‘lishi bilan xo‘jalik yurituvchi subyekt mablag‘lar zaxirasini qandaydir normal darajaga (qaytish nuqtasi) qaytarish uchun yetarli miqdorda qimmatli qog‘ozlarni sotib olishni boshlaydi. Agar pul zaxirasi quyi chegaraga yetsa, u holda xo‘jalik yurituvchi subyekt o‘z qimmatli qog‘ozlarini sotadi va naqd pul zaxirasini normal darajaga (qaytish nuqtasi) to‘ldiradi.

Stoun modeli asosiy xususiyati xo‘jalik yurituvchi subyektning hozirgi vaqtdagi harakatlari yaqin kelajak uchun prognoz

qilinishi bilan belgilanadi. Agar yaqin kunlarda yuqori xarajatlar kutilsa, shu bilan birga konvertatsiya operatsiyalari sonini minimallashtirish va natijada xarajatlarni kamaytirish orqali yuqori chegaraga erishishda pul mablag‘larining qimmatli qog‘ozlarga darhol o‘tkazib bo‘lmaydi.

Miller-Orr modelidan farqli o‘laroq, Stoun modeli maqsadli pul mablag‘lar qoldig‘i va nazorat chegaralarini aniqlash usullarini ko‘rsatmaydi. Ushbu modelning muhim afzalligi shundaki, uning parametrlari belgilangan qiymatlarga ega emas. Model mavsumiy tebranishlarni hisobga olishi mumkin, chunki menejer prognoz qilishda ma‘lum vaqt oralig‘ida ishlab chiqarish xususiyatlarini baholaydi.

Monte-Karlo modeli. Ushbu model maqsadli qoldiqni aniqlash uchun ishlatiladi hamda model ko‘rsatkichlarning ehtimollik xususiyatini hisobga oladi. Monte-Karlo usuli (Monte-Carlo Simulation) simulyatsiya modellashtirish parametrlarning noaniq qiymatlari bilan matematik modelni qurish imkonini beradi, firmaning pul oqimlari parametrlarining ehtimollik taqsimotini bilish, shuningdek, maqsadli pul qoldig‘ining taqsimlanishini olish uchun parametr o‘zgarishi (korrelyatsiya) o‘rtasidagi munosabatdir.

Mazkur usulni qo‘llashning birinchi bosqichi pul oqimining shakllanishiga ta‘sir qiluvchi har bir o‘zgaruvchini taqsimlash funksiyasini aniqlashdir. Qoida tariqasida taqsimot funksiyasi normal deb taxmin qilinadi va shuning uchun uni aniqlashtirishda faqat ikki nuqta – o‘rtacha va dispersiyani aniqlash kerak.



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

Funksiyaviy taqsimot aniqlangandan so‘ng Monte-Karlo jarayonini qo‘llash mumkin. Monte-Karlo imitatsion usulining algoritmi quyidagilardan iborat:

1-bosqich. Statistika paketdan foydalanish asosida tasodifiy ravishda ehtimoliy taqsimot funksiyasidan kelib chiqib, pul oqimini aniqlash parametrlaridan biri bo‘lgan o‘zgaruvchining qiymati tanlanadi.

2-bosqich. Tasodifiy o‘zgaruvchining tanlangan qiymati, ekzogen o‘zgaruvchilar bo‘lgan o‘zgaruvchilar qiymatlari bilan birgalikda maqsadli pul qoldig‘ini hisoblash uchun ishlatiladi.

1-bosqich va 2-bosqich ko‘p marta takrorlanadi, masalan 1000 va natijada maqsadli pul qoldig‘ining 1000 qiymati o‘zining matematik taxmini va standart o‘zgarishi bilan maqsadli balans qiymatining taqsimlanish zichligini yaratish uchun ishlatiladi.

Kritik o‘zgaruvchining minimal va maksimal qiymatlarini bosqichma-bosqich taqsimlanadigan o‘zgaruvchi uchun ikkita qo‘shimcha qabul qilinadigan boshqa qiymatlarni aniqlash zarur. O‘zgaruvchining o‘zgarish chegaralari shunchaki mumkin bo‘lgan qiymatlarning butun spektrini hisobga olgan holda aniqlanadi.

O‘zgaruvchining oldingi kuzatuvlariga asoslanib, uning mos keladigan qiymatlarni olish va tezligini aniqlash mumkin. Bunday holda ehtimollik taqsimoti nisbiy shkala bo‘yicha (0 dan 1 gacha) bo‘lsa-da, qiymatning paydo bo‘lish tezligini ko‘rsatadigan bir xil tezlik taqsimotidir.

Ehtimoliy taqsimot ma‘lum bir oraliqdan qiymatlarni tanlash ehtimolini tartibga soladi.

Berilgan taqsimotga muvofiq, maqsadli pul qoldig‘ini aniqlash modeli o‘zgaruvchi uchun o‘z qiymatlarini tanlaydi. Maqsadli pul qoldig‘ini ehtimoliy aniqlash modelining bir qismi sifatida, o‘zgaruvchining turli qiymatlari bo‘lganda, samaradorlik ko‘rsatkichi qanday harakat qilishini (u qanday chegaralar ichida o‘zgarishi, qanday taqsimlanishi) aniqlash uchun ko‘p sonli ko‘rsatkichlar amalga oshiriladi hamda berilgan taqsimotga muvofiq modelga almashtiriladi.

Muhokama va natija. G‘arb amaliyotida Baumol modeli va Miller-Orr modeli eng ko‘p qo‘llaniladi. Naqd pul qoldiqlarining maqbul miqdorini matematik hisoblashning aniqligiga qaramay ushbu modellardan quyidagi sabablarga ko‘ra moliyaviy boshqaruvning mahalliy amaliyotida foydalanish hali ham qiyin, jumladan:

– joriy aktivlarning surunkali taqchilligi xo‘jalik yurituvchi subyektlarga ularning zaxirasini hisobga olgan holda zarur miqdorda pul mablag‘lari qoldig‘ini shakllantirishga imkon bermaydi;

– to‘lovlar aylanmasining sekinlashishi pul tushumlari miqdorida sezilarli (ba‘zan oldindan aytib bo‘lmaydigan) o‘zgarishlarga olib keladi, bu mos ravishda pul aktivlari qoldig‘i miqdorida aks etadi;

– muomaladagi qisqa muddatli fondlarning cheklangan ro‘yxati va ularning past likvidligi hisob-kitoblarda qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlardan foydalanishni qiyinlashtiradi.



www.isft.uz

“ISFT” ILMİY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/4-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘ricida”gi Qonuni.
2. “Pul oqimi to‘g‘risidagi hisobot» nomli 9-sonli BHMS.
3. Spiceland, David J., James F. Sepe and Lawrence A. Tomassini. Intermediate accounting, 4th ed. Irwin: McGraw-Hill, 2009.
4. “Buxgalteriya balansi” 15-sonli BHMS.
5. Moliyaviy-qimmatli qog‘ozlar» 39-sonli MXXS.
6. «Pul oqimi hisobotlari» 7-son MXXS.
7. Ковалев В.В., Патров В.В., Быков В.А. Как читать баланс. - 3-е изд., преработ. и доп. - М.: Финансы и статистика, 5-е изд., перераб. И доп.-М: 2006. - 672 с.
8. Ismanov I., Toshmamatov N., Buzrukxonov S. Moliyaviy hisob va hisobot. Darslik. – T.: Sano-standart, 2019. – B. 52.
9. World Bank Group. Uzbekistan: Financial Sector Assessment Program. – Washington, D.C.: World Bank, 2022.
10. Государственный комитет статистики Республики Узбекистан. Статистический ежегодник Узбекистана 2023. – Ташкент: Госкомстат.